



O`SMIRLARNING INTELLEKTUAL VA IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Pirmanova G. N.
dotsent, NavDPI

Таянч сўзлар: педагогик тизим, бадий мерос, кизикишини ошириш, маданий билим, педагогик билим, ўрганиш, хорижий тил, Англия бадий мероси.

Ключевые слова: педагогическая система, художественное наследие, активизация интелекеса, культурологические знания, педагогические знания, изучения, иностранный язык, художественное наследия Англии.

Key words: pedagogical system, artistic heritage, increasing interest, cultural knowledge, pedagogical knowledge, learning, foreign language, English artistic heritage.

Hozirgi kunda ingliz tilini o`rgatishning innovatsion yondashuvlari va texnologiyalarini takomillashtirish ustida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada ingliz tili darslari asosida o`smirlarda intellektual va ijodiy faoliyatni rivojlantirish masalalari ham dolzarblik kasb etmoqda.

O`smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatdan o`rganish muammosi faylasuflar, psixologlar va o`qituvchilarni jalb qilgan. Falsafiy adabiyotlarda bu masala shaxsning erkinligi va ma`suliyati, shaxs va jamiyatning o`zaro munosabati, ijtimoiy va shaxsiy amaliyot bilan bog`liq bo`lgan. Psixologik jihatdan qaralganda, o`smirlarning ijodiy va intellektual faoliyatini rivojlantirish umumiy tashabbuskorlik, tanqid, o`z-o`zini anglash hissi bilan namoyon bo`lgan umumiy xususiyat sifatida ko`zga tashlanadi. Pedagogik tajribalarda esa o`smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning muvaffaqiyatini ta`minlaydigan muhim shart bu – o`qituvchi va o`smir o`rtasida ta`limiy o`zaro munosabatlarni tashkil etish usullarini tanlash, an`anaviy shakli va o`qitish usullari sifatida yaqqol namoyon bo`ladi.

O`smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatni rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo`llab-quvvatlash va rag`batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish xalq ta`limi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.



Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh istedodlarni anglash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o'qitish tizimini tashkil etish, o'smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi ko'p tarmoqli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda.

Ta'lim jarayonida o'smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va ketma-ket bajariladigan usullar belgilab olinadi:

- O'smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini shakllantiruvchi xususiyatlarini uyg'otish va rivojlantirish rejalashtiriladi.
- Mana shu xususiyatlarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi usullarni yaratish yoki intellektual va ijodiy faoliyatni oshirib borishga xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Mana shunday rejaga solinib olib boriladigan ishlarni amalga oshirish ta'lim tarbiya tizimi jarayonida ham yoshlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirib boradi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatni oshirib boradi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir.

Bu ta'lim o'qitish muhitining o'quvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'laligicha o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatni rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga erishishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Bu turdagi o'smirlarda mustaqil tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'smirlarning darsdan tashqari o'rganish jarayonining muhim bo'g'ini va kompleks yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishning ajralmas shartidir. Darsdan tashqari ta'limning asosiy vazifalaridan biri maktabga bolalarga puxta bilim berish, bolalarning badiiy ijodkorligini rivojlantirish va ularni ko'chadan chalg'itishga yordam berishdir. Ta'lim berishdan tashqari, studiyalar va to'garaklardagi darslar ham o'quv va kasb – hunarga yo'naltirilgan bo'lishi juda muhimdir. O'smirlarning dunyoqarashini kengaytirish va bilimlar zaxirasini to'ldirish, yangi ko'nikma va malakalarni egallash bilan bir qatorda ma'lum bir kasb haqida tasavvurga ega bo'ladilar.



Aniq maqsadga yo'naltirilga sinfdan tashqari darslar qo'shimcha ekologik mazmundagi materialdan foydalanishga imkon beradi, o'quvchilarning tarixiy va madaniy yodgorliklarni hamda tabiatni muhofaza qilishga doir g'oyalari kengaytiradi va ularning bu sohadagi bilimlarini oydinlashtiradi.

Darsdan tashqari ta'lim markazi nafaqat yirik shaharlarda, balki Rossiya Federatsiyasining kichik provinsiyalarida ham mavjud. Umuman olganda, mamlakatda 20 mingdan ortiq bunday muassasalar mavjud. Darsdan tashqari ta'limda minglab o'smirlarimiz o'zlarining intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda dunyoqarashlaridagi o'zgarishlarga ham guvoh bo'ladilar.

Bilimlarning tez suratlarida o'sishi va hali kashf qilinmagan hodisalar, texnologiyalarning tez o'zgarishi ta'lim hali erishilmagan fan va texnika darajasiga yo'naltirishni talab qiladi. Ushbu natijaga erishishning samarali usuli – fikrlashning izlanish uslubini shakllantirish, intellektual faoliyat va bilimga qiziqish uyg'otish. Ushbu muammoni hal qilish vositalaridan biri bu o'quvchilarning o'quv va tadqiqot faoliyati asosida sinfdan keying o'quv jarayonini qurishdir.

To'g'ri, har tomonlama barkamol shakllangan, intellektual va ijodiy faoliyatli yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Buning uchun mamlakatimizda amaldagi ta'lim tizimining hamma bosqichlarida jahon standartlariga mos moddiy texnik baza va ta'lim texnologiyalarining ilg'or ko'rinishlaridan foydalanish joriy etilgan. Biroq yoshlarni psixologik va pedagogik rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq o'rganish, ularning har biriga xos layoqat, iqtidor va qobiliyat ko'rinishda namoyon bo'ladigan intellektual va ijodiy qobiliyatlarini aniqlash hamda o'quv tarbiya jarayonlarini ana shu imkoniyatlarga qarab individuallashtirish zamonaviy talablarga mos ravishda amalga oshiriladi. Psixologik va pedagogik taqdiqotlarning natijalariga ko'ra, intellektual va ijodiy qobiliyatli bolalarni o'rganish hamda ularni tarbiyalash ishlarining yanada olg'a siljishiga ko'p jihatdan ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar va keng jamoatchilikning bilim va tajribalariga tayangan holda, ularning o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy asosda tushunishlari bilan ham uzviy bog'liqligini ko'rsatmoqda.

Yoshlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularni barkamol, jismonan va ruhan sog'lom shaxs sifatida vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, keng dunyoqarashga ega komil inson bo'lishga intilish tuyg'usini shakllantirish maqsadidamaktablarda darsdan tashqari to'garaklar tashkil etildi. Maktablarda darsdan tashqari tashkillashtirilgan to'garaklarda o'quvchi yoshlarga buyuk ajdodlarimiz va adiblarimizning boy ijodiy merosini o'rgatish, ularga munosib



voris etib tarbiyalash, qadimgi tarixiy va madaniy yodgorliklar haqidagi bilimlarni berishga yo`naltirilgan kompleks o`quv-tarbiya jarayonlari yo`lga qo`yildi.

Mamlakatimizda sog`lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning zamonaviy bilim va taraqqiyot cho`qqilarini egallashi, o`z qobiliyat va iqtidorini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu jarayonda o`sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish, ularni xalqimizning milliy an`ana va qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ma`naviy olamini yuksaltirish masalalariga alohida e`tibor qaratilmoqda. Ular tarbiyasiga ommaviy axborot vositalarining ta`siri yuqori ekanligini hech kim inkor qilolmaydi. Globallashuv jarayonining o`ziga xos jihati uning mafkuraviy ta`sir o`tkazish quroliga aylanishi mumkinligi bilan izohlanadi. Bugun uzoq-yaqin mintaqalarda yuz berayotgan voqealarni inobatga olsak, hali ongi, hayotiy qarashlari shakllanmagan yoshlarni chalg`itishga qaratilgan g`arazli kuchlar internet tarmog`idan o`z manfaati yo`lida foydalanayotganini ham inkor etib bo`lmaydi.

Demak, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ma`naviy immunitetini kuchaytirish, axborot madaniyati va media savodxonligini oshirish-axborot xavfsizligini ta`minlashning bosh omili desak, mubolag`a bo`lmaydi. Kompyuter xizmatlaridan foydalanish uchun vaqtini ham, pulini ham, oqibatda salomatligini ham ayamaydiganlar safi tobora kengayib bormoqda. Avval haddan tashqari sersavol, hamma narsaga qiziquvchan bo`lgan bola, asta-sekin o`zgara boshlaydi. Maktabdan keliboq, kompyuterga yopishadigan, undan soatlab ajralmaydigan bo`lib qoladi. Avvaliga ota-onalar farzandi ko`cha-ko`yda tentirab yurganidan ko`ra, darslardan so`ng uyda, ota-onasining ko`z o`ngida o`tirishidan xotirjam tortadi. So`ng undagi ruhiy o`zgarish o`smirlik davriga to`g`ri kelmay qoladi. Odamovi, loqayd, yolg`izlikni xush ko`radigan, xudbin va takabbur bo`lib qolayotgandek tuyuladi. Ming afsuski, so`nggi paytlarda ko`ngilni g`ash qiladigan bunday holatlar ko`p kuzatilmoqda.

Intellektual va ijodiy faoliyat o`ziga xos mazmunga ega, uning asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- Obyektning yangi funksiyasini ko`ra bilish;
- Faoliyatning ma`lum usullaridan yangi vaziyatlarda mustaqil foydalanish;
- Muqobil fikrlash, ya`ni ushbu muammoning mumkin bo`lgan yechimlarini, dalil isbotlarining mavjudligini ko`ra bilish;

Aytib o`tilgan xususiyatlardan bilinib turidiki, zamonaviy ta`lim tizimi nafaqat intellektual, balki ijodiy fikrlovchi bolalarni tarbiyalashni o`zining ustuvor vazifalaridan biri deb hisoblaydi. Respublikamiz umumiy o`rta ta`lim maktablarida ta`lim-tarbiya jarayonlarini tashkil qilish va uning mazmunini isloh qilish jarayoni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari, fan, texnika, texnologiya yutuqlariga binoan, shuningdek, boy-madaniy tarixiy yodgorliklarini darsdan tashqari o`rganish

asosida davom etib bormoqda. Zamonaviy o'qitish tizmining turli-tumanligi va murakkabligi o'sib kelayotgan shaxsning rivojlanishiga yangi talablar qo'yimoqda. Shuning uchun o'smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishning samarali yo'llarini izlash bugungi kunda pedagogika fani va umuman jamiyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalardan hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining yana bir muhim tarkibiy qismi bolalarga ta'lim ta'sirini o'tkazish maqsadida bevosita o'qituvchi tomonidan olib boriladigan darsdan tashqari mashg'ulotdir. Mavzu bo'yicha darsdan tashqari o'rganishni tashkil etish yanada muvaffaqiyatli o'rganishga yordam beradi, shuningdek o'quvchilarning intellektual va ijodiy faoliyatlarini rivojlanishini ta'minlaydi. Darsdan tashqari o'rganish nazariy bilim va amaliy tajriba o'rtasida ko'prik o'rnatishga yordam beradi va kasbiy fazilatlarni shakllantiradi. Rivojlanayotgan ta'lim faoliyati individual qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishda, turli xil loyihalarni amalga oshirishda maktab o'quvchilarini jalb qilish orqali ijodiy salohiyatni ochib berishga yordam beradi. Sinfdan tashqari darslar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga, faoliyatga tayyorlashga keng imkoniyatga ega. Sinfdan tashqari darslar asosan o'smirlarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. Sinfdan tashqari tashkil qilingan darslar o'smirlar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularni dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga, intellektual va ijodiy qobiliyatining rivojlanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi.

Sinfdan tashqari darslar majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida darslarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. O'smirlarning sinfdan tashqari darslari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari darslarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. Har bir o'smirning intellektual va ijodiy faoliyatlarining rivojlanishiga sinfdan tashqari dars katta ahamiyatga ega. O'quvchining nima o'qiyotganligi va o'qigan narsalarini qanday idrok qilayotganini o'qituvchi bilishi juda muhim. Shuning uchun o'qituvchining sinfdan tashqari darslarga rahbarligi eng yaxshi kitoblarni targ'ib qilish va o'quvchilarda o'qilgan darsliklarni to'g'ri, chuqur idrok etishni rivojlantirishdan iborat.

O'qituvchi ta'lim jarayonida o'smirlarning madaniy ehtiyojlari va kamolot darajalarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ularga muvofiq tarzda bazi o'qituvchilar, guruh yoki butun sinf bilan olib boriladigan sinfdan tashqari darslarni rejalashtiradilar. Sinfdan tashqari darslar o'smirlarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni ixtiyoriy ravishda, faol va mustaqil qatnashishlari uchun sharoit yaratiladi.



Sinfdan tashqari darslar tashkilotchisi, maktab tarbiyaviy ishining umumiy rejasini tuzadi hamda o'quvchilarga har tomonlama tarbiya berishda maktab o'qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalarning faoliyatini bir-biriga muvofiqlashtiradi. Sinfdan tashqari o'rganishning o'ziga xos xususiyati - bu vosita va usullarni tanlashda qat'iy qoidalarning yo'qligi. Ko'pgina hollarda natijalarni nazorat qilish guruhni kuzatish asosida, emperik tarzda amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari o'rganish jarayonida nafaqat o'quvchi balki o'qituvchi ham o'rganilayotgan obyektning tub mohiyatini kuzatish asosida amaliyotga tadbiiq etadi. Bu metodlardan foydalanish o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatining rivojlanishida yana bir asos vazifasini bajaradi.

Darsdan tashqari o'rganishning yana bir muhim tomoni shundaki, o'quvchilarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida ulardagi tug'ma qobiliyat va iste'dodlar namoyon bo'la boshlaydi. Ma'lumki turli kishilarni bir xil sharoitlarga va vaziyatlarga qo'yilganda, ular turli muvaffaqiyatlarga erishadilar. Bunday paytlarda "Ijodiy faoliyatlar" tushunchasiga suyanamiz va muvaffaqiyat asosini ijodiy faoliyat deb tushunamiz. Bu tushunchadan ba'zi odamlarni yangilikni boshqalardan ko'ra tezroq va yaxshiroq o'zlashtirganlarida ham foydalanamiz. Qobiliyat masalasidagi markaziy muammo uning irsiyiligi, tug'maligidir. Tug'ma qobiliyatga ega o'quvchilar o'qituvchining har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tezda o'zlashtirib hayotga tadbiiq etadilar. Lekin bu qobiliyat va istedod hamma o'quvchilarga ham nasib etavermaydi. Shunday ekan, ijodiy va intellektual qobiliyatlarni shakllantirish va ularni rivojlantirish birinchi navbatda pedagoglar va keng jamoatchilik ya'ni oila, mahalla, o'quv muassasalari va korxonalar, tashkilot boshqaruvchilari zimmasiga tushadi. Darsdan tashqari o'rganish jarayonida o'smirlarga yo'naltirilgan tarbiya tizimi o'qituvchidan tarbiya uslubiyatlariga alohida munosabat bilan yondashishni, uslubiyotni hamda mavjud holatni to'liq o'rganishni, jarayonga ijodiy muhitni olib kirishni taqozo etadi.

O'smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini ro'yobga chiqarish uchun tarbiya jarayonining mohiyati juda muhimdir. Ularning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining yana bir hissasi shuki, o'smirlarda jamiyatga naf keltiradigan, axloqiy talablarga muvofiq keladigan malaka va ko'nikmalarni hosil qildirishdir. Bunga erishish uchun o'quvchining qiziqishlaridan kelib chiqib, uning ongiga, dunyoqarashiga, tafakkuriga ta'sir etib boriladi. Mana shu psixologik jihatlar e'tiborga olingandagina o'smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib uni rivojlantirishga imkon yaratadi.

O'smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Intellektual va ijodiy faoliyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan



qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Yoshlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo'yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun har bir o'smiring ongiga, dunyoqarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta'sir etib boriladi. Natijada o'smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatini shakllantirib uni rivojlantirishga imkon yaratiladi.

Darsdan tashqari o'rganishning asosiy vazifalaridan biri maktabda o'quvchi yoshlarning ijodiy va intellektual faoliyatini rivojlantirish uchun ularga puxta bilim berish, ularning badiiy ijodkorligini rivojlantirish hamda ularni ko'chadan chalg'itishga yordam berishdir. Darsdan tashqari o'rganishning shakllari va vositalari bolalar va o'smirlarning guruh bo'lib ishlash ruhida tarbiyalaydi. Ularni maqsadlarini ko'ra oladigan va o'z oldiga maqsad qo'yishga qodir, qiyinchiliklarni yengishga tayyor, ma'lum kasblarga professional yo'naltirilgan halol, mehnatsevar hamda o'ziga ishonadigan insonlar etib tarbiyalaydi

Darsdan tashqari o'rganish jarayonida o'quvchilarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ham yaxshi samara beradi. Bunday tadbirlarni ikki guruhga ajratishimiz mumkin, ya'ni o'smirlardagi intellektual faoliyatni rivojlantiruvchi tadbirlar: "Zakovat", "Iqtidor", "Imkon" intellektual o'yinlari, "Eng yaxshi tarixchi, matematik, dasturlovchi..." nomlarda tanlovlar, ilmiy anjumanlar o'tkazish, "Yosh dasturlovchilar", "Yosh ixtirochilar", "Yosh iqtisodchilar" kabi klublarni tuzish hamda o'smirlardagi ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun "Eng yaxshi she'r, rasm, kashta" nomlarda tanlovlar o'tkazish, "Quvnoqlar va zukkolar" bellashuvlari o'tkazish, "Eng yaxshi hamshira, hisobchi, oshpaz, ..." nomlarda tanlovlar o'tkazish, "Yosh musavvir", "Yosh kitobxon" klublari tuzish, ijodkor yoshlar uchun ijodiy kechalar tashkil qilish, umumxalq bayramlari hamda Xalqaro va Milliy bayram kunlari munosabati bilan tadbirlar majmuini ishlab chiqish, buyuk mutaffakkirlarimizning tavallud kunlariga bag'ishlangan bayram kechalarini sahnaviy ko'rinishlarini uyushtirish, mustaqil ravishda biron bir mavzuga bag'ishlangan badiiy kompozitsiyalar tayyorlash, badiiy havaskorlik to'garaklarini tashkil etish orqali o'smirlardagi qobiliyat yaqqol namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти томах. – М., 1984. – Т. 4 («Развитие мышления, образование понятий у подростков») – С. 40-111. «Воображение и творчество подростка». – С. 119-220).
2. Горлова Н.А. Состояние методики раннего обучения иностранным языкам на пороге третьего тысячелетия // Иностранные языки в школе. – М., 2000, № 5. – С. 11-17.
3. Дудецкий А.Я. Теоретические вопросы творческого воображения / Цикл лекций спецкурса для студентов педагогического вуза и учителей общеобразовательных школ. – Смоленск, 1980. – 178 с.



4. Искусство как фактор интеллектуально-творческого развития школьников / Сборник научных трудов. Под ред. Ю.У.Фохт-Бабушкина и Е.К.Чухман. – М., 1989. – 211 с.
5. Обухова Л.Ф. Концепция Жана Пиаже: за и против. – М., 1989 («Развитие мышления в подростковом возрасте»). – С. 104-109.
6. Хашимов У.Х., Якубов И.Я. Инглиз тили ўқитиш методикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 190 с.
7. Richard W.Railey. Images of English “A Cultural History of the Language” – Cambridge University Press, 1997.
8. Shchepkova V.V., Boolkina A.P. Travelling to Britain and in Britain || Иностранные языки в школе. – Москва, 1999, № 6. – С. 84-88.

РЕЗЮМЕ

Муваффақиятли машғулот нафақат сўз бойлигига, балки асосан Англия ҳақидаги маданий материалларни тақдим этишга боғлиқ. Биринчидан, энг қадимий архитектура ҳақидаги кенг маълулотдан. Синфдан ташқари вақтда муваффақиятли ҳал қилинган нарса. Ўсмирнинг интеллектуал ва ижодий қобилиятларидан максимал даражада фойдаланиш, шу жумладан, ўсмирларнинг етарли коммуникатив ва таълим фаолияти. Мақолада дарсдан ташқари машғулотларда самарали фойдаланиладиган янги технологиялар, ноанъанавий ва ўзига хос усуллар, инновацион услублар, замонавий ахборот воситалари, биринчи навбатда ўспиринларнинг интеллектуал ва ижодий фаолиятни ривожлантириш учун, аниқроғи, мактабдан ташқари машғулотларда-потенциал жиҳатдан самарали бўлган материаллар тўғрисида- ёдгорликлар тўғрисида тарих ва маданият (Буюк Британия, Англия). Биз синфларнинг мавзуси, мақсади, шакли, типологияси ва албатта ўспиринларнинг ёш хусусиятлари туфайли турли хил технологик конструкциялардан дидактик принциплар асосида амалга оширилдиган усуллар, техникалар ва воситалар, техникалар ва индивидуал компонентлар тизими.

РЕЗЮМЕ

Успешное обучение зависит не только от активной лексики, но и, главным образом, - от презентации культурологического материала относительно Англии. Прежде всего, - от широкой информации о величайших древне-архитектур. Что успешно решимо во внеучебное время. С максимальным использованием интеллектуально-творческих способностей подросткового возраста, в том числе, в адекватной коммуникативно-просветительской деятельности подростков. В статье раскрыты содержание новых технологии, нетрадиционные и оригинальные методы, инновационные методики, современные информационные средства, эффективно используемые на внеаудиторных занятиях, прежде всего, в целях развития интеллектуально-творческих деятельности подростков – именно во внеучебной работе – на потенциально-эффективном материале – о памятников истории и культуры (Великобритании, Англии). Используются разновариантные технологические конструкты занятий, обусловленные их тематикой, целью, формой, типологией и, безусловно, - возрастными особенностями подростков. Это – система методов, приемов и средств, методика и отдельные компоненты, реализуемые на основе дидактических принципов.

SUMMARY

Successful learning depends not only on active vocabulary, but also, mainly, on the presentation of cultural material regarding England. First of all, from broad information about the greatest ancient architectures. What can be successfully solved during extracurricular time. With maximum use of the intellectual and creative abilities of adolescence, including in adequate communicative and educational activities of adolescents. The article reveals the content of new technologies, non-traditional and original methods, innovative techniques, modern information tools that are effectively used in extracurricular activities, primarily for the purpose of developing the intellectual and creative activities of adolescents - namely in extracurricular work - on potentially effective material - about monuments history and culture (Great Britain, England).

Various technological constructs of classes were used, determined by their theme, purpose, form, typology and, of course, the age characteristics of adolescents. This is a system of methods, techniques and means, methodology and individual components, implemented on the basis of didactic principles.